

YOSHLARNING KASBIY IJTIMOYILASHUVIDA – XALQ PEDAGOGIKASINING DIDAKTIK VA AKMEOLOGIK AHAMIYATI

Begmatova Dilnoza Muxtarovna

Samarqand davlat chet tillar instituti dosenti,

Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotasiya. Maqolada xalq pedagogikasining didaktik va akmeologik ahamiyati, shuningdek, yoshlarning kasbiy ijtimoiylashuvida – xalq pedagogikasidagi tajribalarni nazarga olish, xalq pedagogikasi, oilaviy pedagogika bilan hamkorlikda shaxsning kasbiy aqidalari, tafakkuri va malakalarining shakllanishidagi masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: yoshlar, xalq pedagogikasi, kasbiy ijtimoiylashuv, oila, oilaviy pedagogika, didaktika, akmeologiya.

Аннотация. В статье освещается дидактическое и акмеологическое значение народной педагогики, а также вопросы формирования профессиональных убеждений, мышления и умений личности во взаимодействии с народной педагогией и семейной педагогией в профессиональной социализации молодежи.

Ключевые слова: молодежь, народная педагогика, профессиональная социализация, семья, семейная педагогика, дидактика, акмеология.

Annotation. The article highlights the didactic and acmeological significance of folk pedagogy, as well as the formation of professional beliefs, thinking and skills of the individual in interaction with folk pedagogy and family pedagogy in the professional socialization of young people.

Key words: youth, folk pedagogy, professional socialization, family, family pedagogy, didactics, acmeology.

Xalq pedagogikasi xalq ma'naviyati va madaniyatining uzviy tarkibiy qismi sanaladi. Chunki, tarbiya va yosh avlodni shakllantirish masalalari xalq kelib chiqqan vaqtdan boshlab amal qilib keladi. Xalq o'z urf-odatlarini, qadriyatlarini, nizomlarini, mentalitetini tarkibida har vaqt qanday qilib yosh avlodni tarbiya qilmoq lozim, qanday qilib ularga axloqiy normalarni sngdirish mumkin, farzandlarini qanday qilib sog'lom, tafakkurli va baxtli qilib voyaga yetkazish mumkin degan savollarga o'z javoblarini izlab, ularni avloddan avlodga odat, rasm-rusum, qadriyat sifatida yetkazib kelganlar.

Shunga ko'ra, xalq pedagogikasining kelib chiqishi eng qadimiy davrlarga borib taqaladi, uning mazmuni rangbarang, u kasbiy tarbiya masalalarga doir barcha dolzarb muammolarni o'zida aks ettiradi [1].

O'zbek xalqining milliy-tarixiy pedagogik an'alarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, ilk tarbiyaviy qadriyatlar, norma va talablar xalq hayotiy tajribasi, xalqning pedagogik madaniyati asosida shakllangan. O'zbek xalqi tarbiyaviy an'analari tarkibida esa kasbiy ta'lim va hunarga o'rgatish masalalari eng mo'tabar va kuchli o'rinlardan birini egallaydi.

Shunga ko'ra, talaba-yoshlarning individual shaxsiy xususiyatlarini shakllantirish masalasini tadqiq etishda xalq pedagogikasidagi tajribalarni nazarga olish va ulardan zamonaviy pedagogik tamoyil va nazariyalarni ishlab chiqish va tatbiq etishda unumli foydalanish taqozo etiladi.

Zamonaviy pedagogik ta'limga xos bo'lgan xususiyatlardan biri ham xalq pedagogikasi bilan rasmiy pedagogik ilmlarni o'zaro bog'liqlik va uzviylikda talqin etishda namoyon bo'ladi. Chunki, xalq pedagogikasi xalqning azaliy va asrlarga teng hayotiy tajribasi asosida hosil bo'ladi, xalq pedagogikasi o'zida turli rasmiy ta'sirlardan holilikni, mustaqillikni namoyon etadi, xalqning haqiqatan ham mavjud orzu umidlari va sayiharakatlarini o'zida mujassam etadi. Xalq ijodiga, xalq urf-odatlariga, xalq maqol, matal, aforizmlari, qo'shiqlari, milliy bayramlari va o'yinlari, bolalar o'yinlariga tegishli bo'lgan an'analarda xalqning yosh avlod tarbiyasiga bo'lgan e'tibori va talablari singdirilgan bo'ladi.

Xalq pedagogikasida inson shakllanishiga doir chuqur va betakror gumanizm, ya'ni insonparvarlik g'oyalari yotadi. Xalq farzandlarda yuksak ma'naviy qadriyatlarni tarbiya qilishga har bir davrlarda urinib kelgan. Ularning ichida mehnatsevarlik, kattaga hurmat, kichikka izzat, oqillik, adolatpeshalik, mehr, muruvvat, bir burda nonni ham bo'lishib yeyishlik, xalqning og'irini yengil qilish, do'stlik, birodarlikni qo'llab-quvvatlash, haqiqatgo'ylik, birovning haqiga xiyonat qilmaslik, halol luqma yeyishlik, pokmadonlik kabilar har vaqt qadrlangan. Mazkur insoniy xislat va xususiyatlar bugungi kunda ham o'z dolzarbligini yo'qotmagan bo'lib, o'zbek xalqining donishmandligi va ruhan, ma'naviy jihatdan irodali ekanligidan dalolat beradi.

Xalq pedagogikasi bu – tarixiy-ijtimoiy fenomen sanaladi. Xalq pedagogikasi – ajdodlarning ma'naviy merosi va uning ko'zgusi hisoblanadi. Shunga ko'ra, o'zbek xalqining inson tarbiyasiga oid qadriyatlari zamonaviy pedagogik qarashlarni boyitishga xizmat qiladi.

Xalq pedagogikasining an'anaviy asoslaridan biri bu – mehnat tarbiyasi, farzandlarni kasb hunarlarga o'rgatish tajribasi hisoblanadi.

Xalq pedagogikasi kasbiy ta'lim masalalarida quyidagi pedagogik funksiyalarni bajarishga xizmat qiladi:

- ✓ shaxsning kasbiy va hunar malakalarini shakllantrishda tashkiliy-axborot ulashish, axborot bilan ta'minlash funksiyasi;
- ✓ shaxsning kasbiy va hunar malakalarini shakllantirishda o'zaro muloqot olib borish va kommunikativlik funksiyasi;
- ✓ shaxsning kasbiy va hunar malakalarini shakllantirishda xalq an'analarni davomiy, uzluksiz va an'anaviy tarzda avloddan avlodga o'tkazish, ya'ni o'tkazuvchanlik funksiyasi;
- ✓ shaxsning kasbiy va hunar malakalarini shakllantrishda xalq udumlari, odatlari, urflari va metalitetini saqlash orqali ularni yosh avlod tafakkurida qayta shakllantirish va qadriyat darajasiga ko'tarish funksiyasi;
- ✓ shaxsning jamoa bilan munosabatlarini o'zaro aloqadorlik va ikki tomonlama o'zaro foydalilik asosiga qurish funksiyasi [2].

Xalq pedagogikasi o'z faoliyatini bolaning eng kichiklik, murg'aklik davridanoq boshlashi bilan belgilaydi. Bu davr bola shakllanishida uning eng muhim hayotiy ehtiyojlarining yuzaga kelishi va ta'minlanishi jarayoni sanaladi. Mana shu ehtiyojlar ichida so'zlasha olish, mustaqil ovqat yeyish, oyoqqa turish va yurib ketish kabilar muhim ahamiyat kasb etadi.

Xuddi shu davrda oilaviy tarbiya yordami bilan xalq pedagogikasining eng muhim ma'naviy-mafkuraviy, ma'rifatparvarlik aqidalari bola ongiga singdiriladi va uning malaklari shakllantiriladi. Binobarin, aynan xalq pedagogikasi, oilaviy pedagogika bilan hamkorlikda shaxsning kasbiy aqidalari, tafakkuri va malakalarining shakllanishidagi ilk bosqichlardan biri hisoblanadi.

Xalq pedagogikasining o'ziga xos xususiyati shundaki, u insonlar yashash tarzi, ularning o'zaro muloqoti, nimalarni xush ko'rishi, nimalardan voz kechishi, nimalarni qadrlashi orqali insonni tarbiyalaydi [3]. Shunga ko'ra, bolalik davridagi mehnat tarbiyasi insonning butun umri davomidagi kasbiy malaklarining darajasi va sifatiga o'z ta'sirini o'tkazadi.

Tabiiyki, xalq pedagogikasi oliy ta'lim jarayonida yaxlit xoldagi tizimlashgan qurilma sifatida ish ko'rmaydi, balki bilim, qadriyat, ustama, norma va ta'qiqlar majmuasi sifatida ish ko'radi.

Xalq pedagogikasi turli aniq ifodalangan formulalar, ya'ni aforizmlar, maqollar, matallar, hikmatlar tarzida uzoq hayotiy tajribadan o'tkazilgan xalq tajribasini ifoda qilib, ularni tayyor holda namoyon qiladi. Yoshlar ham oilada xalq merosi namunalarini tahlilsiz, amal qilish lozim bo'lgan aqidalar tarzida qabul qilib, o'z hayotida ularga qat'iy rioya etishga o'rgatilgan bo'ladi. Chunki, xalq pedagogikasi ko'proq xalq tajribasi va hayotiy tajriba asosiga qurilgan bo'ladi. Shuning uchun ham xalq pedagogikasi bu – amaliy pedagogik tajribaning umumlashtirilgan formasi sanaladi.

Xalq pedagogikasi o'z faoliyatini pedagogik didaktika tamoyillari asosiga quradi. Didaktika – bu ta'lim-tarbiya berish ilmi va san'ati bo'lib, xalq pedagogikasi ko'proq tarbiya san'ati darajasida ish ko'radi [4].

Ma'lumki, didaktikaning predmeti – o'qituvchi faoliyati bilan o'quvchining ta'lim olish jarayoni o'rtasidagi bog'liqlikni, o'zaro aqliy munosabatlar qonuniyatlarini o'rganishdir. Shunga ko'ra, xalq pedagogikasida ustoz va shogird munosabatlari va mazkur munosabatlarning bosh tamoyillari ishlab chiqilgan bo'lib, ular ma'lum norma, qoidalar tarzida amaliyotga tatbiq etiladi.

Xalq ijodiyotida ham ustoz-shogird munosabatlarining turli qirralari aks etadi. Masalan, ustozning ta'lim jarayonidagi betakror ahamiyati borasida quyidagi maqolda aytilgan:

“Ustoz ko'rmagan shogird har tomonga yo'rg'alar”.

Ustoz bor bilimni o'z shogirdiga berish jarayonida o'zidagi bilim va tajribalarni erinmay va holisona shogirdiga berishi kerak, agar bunday qilmasa, aslida shogirdini tarbiyalagan va o'stirgan bo'lmaydi, balki unga halaqit bergan bo'ladi. Haqiqiy ustoz o'z shogirdida uning imkoniyatlari va layoqatlarini keng ochish va rivojlantirish yo'lidan borishi zarur. Ustoz va shogirdning bevosita

aloqalari borasida ham xalq pedagogikasida o'ziga xos talab va normalar ishlab chiqilgan. Ularga asosan ustoz va shogird munosabatlari mehr, ishonch, hamkorlik asosiga qurilgan bo'lmog'i lozim. Ana o'shanda shogird yuragida xolis minnatdorlik hissi uyg'onadi, ustoz yuragida esa shogirdning yutuqlaridan xolis g'urur hissi yuzaga keladi.

Xulosa qilib aytganda, talabalarning individual shaxsiy xususiyatlarini shakllantirishda – xalq pedagogikasining ahamiyati yuqori bo'lib, Chunki pedagogik jarayonda uzviylik va uzluksizlik uning amaliyligi, maqsad sari yo'naltirilganligi, tomonlar bog'liqligini ta'minlab beruvchi muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. D.M.Begmatova. O'zbek oilalarida yoshlarning kasbiy ijtimoiylashuvi. Monografiya. - Samarqand: SamDChTI, 2020. - 142 b.
2. Muxtarovna B. D. et al. OILADA YOSHLARNING KASBIY IJTIMOYILASHUVINI TA'MINLASHDA O'ZBEK XALQ IJODIYOTI //INTEGRATION OF SCIENCE, EDUCATION AND PRACTICE. SCIENTIFIC-METHODICAL JOURNAL. – 2021. – T. 2. – №. 5. – S. 25-33.
3. Mukhtarovna B. D., Kudratovna D. N. PROFESSIONAL SOCIALIZATION OF YOUTH IN FAMILY EDUCATION. – 2022.
4. Begmatova D. M. Nekotorye osobennosti obucheniya professii: na osnove semeynogo obrazovaniya v uzbekskoy semye //Molodoy uchenyy. – 2011. – №. 5-2. – S. 127-129.
5. Muxtarovna B. D., Uktamovna S. Z. ERTAKLARNI O'RGATISH ORQALI TA'LIM-TARBIYANING ENG MUHIM QIRRALARINI SINGDIRISH //Yosh Tadqiqotchi Jurnal. – 2022. – T. 1. – №. 2. – S. 34-36.
6. Begmatova D. M. KASBIY IJTIMOYILASHUVDA ZAMONAVIY KASBLAR TAHLILI //Pedagogika va psixologiyada innovatsiyalar. – 2020. – T. 10. – №. 3.
7. M.J.Mutolipova Xalq pedagogikasi. (O'quv qullanma). Toshkent, 2015 yil.
8. Mukhtarovna B. D. Professional socialization of youth as a pedagogical problem //ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal. – 2021. – T. 11. – №. 10. – S. 1207-1212.
9. Maxmudova M. INSONNING KELAJAGINI BELGILASHDA KASB TANLASHNING AHAMIYATI //INNOVASII V PEDAGOGIKE I PSIXOLOGII. – 2020. – №. SI-2№ 4.
10. Xakkulov N. K. SAMARKAND ZEMLYa PROSVETITELEY DJADIDOV //Conferencea. – 2022. – S. 48-52.
11. Makhmudovna M. M., Saloyevich J. S., Tashkulovna Y. S. Fostering tolerance among future primary school teachers through pedagogical communication. – 2021.
12. Maxmudova, M. (2017). TA'LIM SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARNI INTEGRASIYALASH. OOO «Kollokvium».

13. Maxmudova, M. (2016). O'ZBEK OILASI VA UNING FUNKSIONALLIGI ASOSLARIGA DOIR.
14. Karshibayeva U., Maxmudova M. Katta umidlar va shum bola asarlarida makon va inson //Inostrannaya filologiya: yazыk, literatura, obrazovaniye. – 2019. – №. 4 (73). – S. 24-27.
15. Maxmudova M. Chet tillarni o'qitishning pedagogik tamoyillari //Inostrannaya filologiya: yazыk, literatura, obrazovaniye. – 2017. – T. 2. – №. 3 (64). – S. 24-26.
16. Maxmudova M. M. BILIMGA QIZIQISHNI RIVOJLANTIRISH ASOSIDA BOLA ShAXSINI ShAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK DEFINISIYASI VA MAZMUNI //Pedagogika va psixologiyada innovasiyalar. – 2020. – T. 10. – №. 3.
17. Haqqulov N. Q. Siddiqiy-Ajziy ma'rifatparvarlik qarashlarida milliy tolerantlik masalasi //NamDU ilmiy axborotnomasi-Nauchnyy vestnik NamGU. – 2020. – №. 10. – S. 296.
18. Qahramonovich H. N. WORTHY DESCENDANTS OF THE SAMARKANDIANS: ENLIGHTENERS JADIDS //World Bulletin of Social Sciences. – 2022. – T. 13. – S. 37-40.
19. Alikulov X., Haqqulov N. Q. DUXOVNAYa ZRELOST I FILOSOFSKOYe MBISHLENIYe ZAVISIMOST RAZVITIYa //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 4. – S. 164-167.
20. GAYBULLAEV O. M. REFLECTION OF THE DEVELOPMENT OF AESTHETIC CULTURE IN UZBEKISTAN IN NATIONAL AND UNIVERSAL VALUES //International Journal of Philosophical Studies and Social Sciences. – 2021. – T. 1. – №. 2. – S. 21-27.